

O‘ZBEK TILI GRAMMATIKASIDA SO‘Z TURKUMLARI

Artikova Dilnoza

JDPU O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi so‘z turkumlari, ularning qo‘llanilishi, vazifalari va gapdagi vazifasi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: so‘z turkumlari, yordamchi so‘zlar, lug‘aviy ma’no, Grammatik ma’no.

O‘zbek tilida so‘z turkumlari, ularning turlari haqida so‘z yuritishdan oldin so‘z turkumi nimaligini bilib olish zarur. So‘zlar lug‘aviy ma’nolari, morfologik belgilari va gapda bajaradigan sintaktik vazifalariga ko‘ra o‘zaro farqlanuvchi turli guruhlarga bo‘linadi. So‘zlarning lug‘aviy va grammatik jihatdan farqlanishiga ko‘ra bunday guruhlarga bo‘linishi so‘z turkumlari deyiladi. Shunga ko‘ra. so‘zlarni turkumlarga ajratishda quyidagi uch muhim belgi asos bo‘ladi:

So‘zlar ifodalaydigan lug‘aviy ma’no turkumlarga ajratishdagi muhim belgidir. Masalan, uy, yer, daraxt, kitob, tosh so‘zları borliqdagi predmetlarni anglatadi. Ularning nomi ekanligi bilan xarakterlanadi. Bir qator so‘zlar shu predmetlarning biror belgisini: rangini, shakl-ko‘rinishini, mazasini, hajm-o‘lchamini ifodalaydi.

Shuningdek, bir qator so‘zlar predmetning ish- harakatini anglatsa (bordi, yozdi, o‘qidi), ayrim so‘zlar ish-harakat yoki belgining belgisini bildiradi: darrov, sekin, oz, ko‘p va boshqalar. So‘z ma’nolaridagi mavjud bu xususiyatlar ulami turkumlarga ajratishdagi asosiy belgidir. Turkumlarga ajratishdagi ikkinchi va uchinchi xususiyat so‘zning shu ma’no tomoniga bog‘liq ravishda yuzaga keladi. So‘z turkumlarini ajratishda morfologik belgi ham muhimdir. Bu xususiyat muayyan so‘z turkumlarida maxsus qo‘sishchalar J-jt tizimi mavjudligini, ularni, asosan, shu turkumga xoslanganini ko‘rsatadi.

So‘z turkumlari — tildagi so‘zlarning ularda umumiyligi kategorial ma’noning (maye. otlarda predmetlik, fe’llarda harakatholat), grammatik kategoriylar yagona tizimining, o‘ziga xos so‘z o‘zgarish, shakl va so‘z yasalish tiplarining, sintaktik vazifalar umumiyligining mavjudligiga qarab ajratiladigan guruxlari (Ba’zi adabiyotlarda “so‘zlarning leksikgrammatik kategoriyalari” deb ham ataladi). Demak, so‘zlarni guruhlarga, turkumlarga ajratishda asosan ularning sintaktik, morfologik va ma’noviy (semantik) xususiyatlarining o‘xshashligi hisobga olinadi. Avvalo 2 asosiy

guruhgaga bo‘linadi: Mustaqil so‘z turkumlari va mustaqil bo‘lmagan so‘z turkumlari. Birinchi guruhgaga o‘zbek tilida mustaqil so‘zlar, ikkinchi guruhgaga esa yordamchi so‘zlar, undovlar, tatslid so‘zlar va modal so‘zlar kiradi. Mustaqil so‘zlar lug‘aviy ma’noga ega, nominativ vazifa bajaradigan, ya’ni predmet, hodisa, belgi, harakat kabilarni ataydigan yoki unga ishora qiladigan va gapning mustaqil bo‘lagi vazifasida kela oladigan so‘zlardir.

O‘zbek tilida so‘z turkumlari 12 ta bo‘lib ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Mustaqil so‘zlar.
2. Yordamchi so‘zlar.
3. Modal so‘zlar.
4. Undov so‘zlar.
5. Taqlidiy so‘zlar.

So‘z turkumlarining barchasi grammatik shaklga ega. Biroq, lug‘aviy, grammatik ma’nosi va vazifasiga ko‘ra turlichadir.

1. So‘z turkumlari ma’no ifodalashiga ko‘ra quyidagicha:

- a) nomlovchi so‘zlar: ot, sifat. son, fe’l, ravish.
- b) ifodalovchi so‘zlar: undov, modal so‘z, yuklama, taqlidiyso‘z.
- c) ko‘rsatuvchi so‘zlar: olmosh, bog‘lovchi, ko‘makchi.

2. Morfologik jihatidan o‘zgarishiga ko‘ra quyidagicha:

- a) morfologik jihatdan o‘zgaradigan so‘zlar : ot, sifat, son, olmosh, fe’l. J-jt
- b) morfologik jihatdan o‘zgarmaydigan so‘zlar: ravish, bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama.

3. Gapda sintaktik vazifa bajarishiga ko‘ra quyidagicha:

- a) sintaktik vazifa bajaradigan so‘zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish, taqlid so‘z.
- b) sintaktik vazifa bajarmaydigan so‘zlar: ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, undov.

Modal so‘zlar. So‘zlarning fikrga yoki fikrning borliqqa bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Garchand, modal so‘zlar lug‘aviy ma’no bildirmasa-da, turli modal ma’nolarni: tasdiq, inkor, taxmin, gumon ma’nolarini ifodalaydi. Gapda esa kirish so‘z, yoki kirish gap vazifasida keladi. Modal so‘zlar ma’no ifodalashi (modal ma’no bo‘lsa ham), gapda vazifa bajarish (kirish so‘z bo‘lsa ham) jihatidan yordamchi so‘zlardan alohida ajratib tursa-da, gap bo‘lagi bo‘la olmasligi jihatidan yordamchi so‘zlarga yaqindir.

Undov so‘zlar so‘zlovchining his-tuyg‘ularini ifoda etadi. Ular buyruq-xitob, haydash-chaqirishning atamasi bo‘lmasa ham ularning ifodasi bo‘la oladi. Masalan, oh, uf, e, eh undovlari zavqlanish, charchaganlik, ajablanish, hayratlanish, kabilarni o‘z ichiga oladi.

Taqlidiy so‘zlar tovushga, holatga bo‘lgan shartli taqlidni anglatadi. Taqlid asosida kishida tushuncha hosil bo‘ladi. Masalan, taqir-tuqur, gup-gup, g‘uj-g‘uj so‘zlari kishi ongida qandaydir tushunchalarini olib keladi. Ular gapda biror gap bo‘lagi vazifasida keladi. Umuman, undov va taqlidiy so‘zlar ayrim xususiyatlariga ko‘ra mustaqil so‘zlarga yaqin. Shuning uchun bu so‘zlar gap bo‘lagi vazifasida ham, o‘zi mustaqil so‘z-gap shaklida ham keladi.

Xulosa o‘mida shuni aytish joizki, o‘zbek tili grammatikasida so‘z turkumlari alohida o‘ringa ega. O‘zbek tilini chuqur bilishni istgan har bir odam, avvalo, so‘z turkumlari haqida yetarlicha tushunchaga ega bo‘lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., 2005
2. M.Mirzayev, C.Usmonov, I.Rasulov. O‘zbek tili. T.,1978
3. O‘zbek tili leksikologiyasi. T., 1981.
4. B.Mengliyev, O‘. Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. T.,2007
5. Qilichev E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Buxoro, 2001
6. Sayfullahyeva R.R. Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H. va boshqa. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, T., fan va texnologiya, 2010.